

Узун туман ҳокимининг қарори



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING QARORI

Uzun tumani, O'zbekiston ko'chasi 7-uy, 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 2 - iyul

287-8-118-Q/22

Uzun tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-287-son qarori hamda shu haqdagi viloyat hokimining 2022-yil 29-iyundagi 395-8-0-Q/22-son qarori ijrosi haqida to'g'risida

Tumanda qo'l jangi sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari o'rtasida yanada ommalashtirish, soha uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-287-son qarori hamda shu haqdagi viloyat hokimining 2022-yil 29-iyundagi 395-8-0-Q/22-sonli qarori (keyingi o'rinda – Qaror deb yuritiladi) ma'lumot va ijrosi qabul qilinsin.

2.Mazkur qaror bilan:

Qo'l jangi sport turini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilanganligi;

Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha manzili chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3.Tumanda Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha manzilli chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman hokimining o‘rinbosari (Z.Abdanov), O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining Qo‘l jangi federatsiyasi viloyat bo‘limi (lavozimiga

ko‘ra) bilan birgalikda ikki oy muddatda rahbar kadrlar orasidan nomzodlarni O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining Qo‘l jangi federatsiyasi hududiy bo‘linmaning raisi lavozimiga tavsiya etib borsin.

5.Tuman hokimligi matbuot kotibi (T.Ataxanov) “Bobotog‘ tongi” gazetasi (I.Bobokalonov)ga mazkur Qarorning maqsad va vazifalari, qo‘l jangi sport turi bo‘yicha ma‘lumotlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Hokim



B.B.Tursunov

**Tumanda Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish
bo‘yicha qo‘shimcha manzilli chora-tadbirlar**

DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
1.	Yoshlar o‘rtasida qo‘l jangini keng targ‘ib qilish.	Tuman markazida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, istirohat bog‘ida va boshqa maskanlarda “Qo‘l jangi sport turi kuni”ni keng nishonlash.	Har yili 23-mart	Ijrochilar va homiyilar mablag‘lari	Tuman hokimligi, Xalq ta’limi bo‘limi (S.Xudoyberdiev)
2.	Tumanda qo‘l jangi bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik asosida klublar faoliyatini tashkil etish.	1.Tadbirkorlik subyektlari va salohiyatli investorlar bilan qo‘l jangi bo‘yicha klublarni tashkil qilish yuzasidan muzokaralar olib borish. 2.Tadbirkorlik subyektlari va salohiyatli investorlarga klublarni tashkil qilish bo‘yicha har tomonlama ko‘mak berish va klublar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	2022-2023-yillar davomida	Ijrochilar va tadbirkorlik subyektlari mablag‘lari	Tuman hokimligi